

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON  
ILLOVA TO'RPLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**M.Radjabova**

Tarix fanini o'qitishda foydalaniladigan metodlar ..... 322

**D.D.J.Nizomitdinov**XV – XVII asr birinchi yarmida nemis tarixshunosligida Amir Temur shaxsi tavsifi va uning  
harbiy yurushlari talqini ..... 325**Қ.А.Пулатов**Борьба с полигамией, гендерным равенством и секуляристической сущностью в  
социальных взглядах джадидов: научный анализ ..... 329

## ADABIYOTSHUNOSLIK

**R.A.Ortiqov**

Ingliz bolalar adabiyotidagi sarguzasht-fantastik asarlar poetikasiga doir ..... 336

**I.M.Jo'rayev**

Zahiriddin Muhammad Bobur merosida xotin-qizlar obrazining tarixiy talqini ..... 341

**O.Z.Dadajonov**Maqsud Shayxzodaning "Mirzo ulug'bek" va Bertold Brextning "Galiley hayoti" dramalarida  
olimlik motivi ..... 350**S.A.Olimjonov**

Erix Mariya Remark va Ulug'bek Hamdam asarlarida badiiyat muammolari ..... 354

**A.A.Qosimov**

The role of mythonyms in Tolkien's works and their linguistic analysis ..... 360

**A.A.Qosimov**

Linguistic analysis of metaphors in Tolkien's novels ..... 366

**Д.Ш.Ибрагимова**

Подходы преподавания зарубежной литературы в иноязычном контексте ..... 370

**M.N.Abduolimova**

Lexical-structural features of mythonyms ..... 376

**N.Qurbanov**

Intensification and Deintensification Expressed Through Hyperbola in English Novels ..... 380

**S.O'.Shermamatova**

Teenager image in "Treasure island" by Robert Louis Stevenson ..... 383

**N.I.Tairova**

XX asr adabiyotida ramziy obrazlarning poetik xususiyatlari doir ..... 386

**S.S.Usmanova**

Psixologizm tarixiy asarda yetakchi obraz usuli sifatida ..... 390

**A.O'.Abdullayev**

Ramz belgining maxsus turi sifatida ..... 395

**K.A.Toipvoldiyev**

Реальный восток М.Ю.Лермонтова ..... 401

**А.А.Касимов, Р.Н.Джагаспанин**Проблема народного героя в литературе как отражение национального  
самосознания ..... 406**Р.Н.Джагаспанин**Интерпретация образа Степана Разина как воплощение идеалов казачества в романе  
В.М.Шукшина "Я пришел дать вам волю" ..... 412**А.Р.Косимов**

Сатира – литературный инструмент В.Шукшина (на примере романа «Любавины») ..... 422

**О.А.Акбаров**

Национальная идентичность и культурная память в современной прозе ..... 427

**Э.Ф.Гиздулин**Историческое развитие постапокалиптических мотивов в  
художественной литературе ..... 431



**INGLIZ BOLALAR ADABIYOTIDAGI SARGUZASHT-FANTASTIK ASARLAR  
POETIKASIGA DOIR**

**О ПОЭТИКЕ ПРИКЛЮЧЕННО-ФАНТАСТИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ В  
АНГЛОЯЗЫЧНОЙ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ**

**ON THE POETICS OF ADVENTURE AND FICTION WORKS IN ENGLISH CHILDREN'S  
LITERATURE**

Ortiqov Rustamjon Abdumalik o'g'li   
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya**

*Ushbu maqola Angliya adabiyotshunosligida bolalar adabiyoti sohasining rivojlanishi va tadqiqotlari haqida batafsil ma'lumot beradi. Bolalar adabiyoti, ko'pincha sinonimlar bilan ifodalananadigan tushunchalar qatorida, alohida tadqiqot obyektlariga ega ekanligi ta'kidlanadi. XVIII asr oxiri va XX asrning birinchi choragida ingliz bolalar adabiyotining rivojlanishi romantizm uslubi va klassik davr an'analaridan kelib chiqib, yangi adabiy uslublar va yo'naliishlarni sinovdan o'tkazish bilan ajralib turadi. Maqolada, bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari, fantastika va absurdizm kabi janrlar orgali bolalar ya kattalar o'rtaqidagi farqlar, shuningdek, bolalik mavzusining badiiy jarayonidagi o'mi yoritilgan. Bolalar obrazining shakllanishi va bolalar adabiyotining o'ziga xosligi romantik davrda, ayniqsa Viktoriyan davrida, alohida ahamiyat kasb etgani ta'kidlanadi. Maqola, shuningdek, bolalar adabiyotining o'ziga xos maqsadlari va badiiy elementlari o'z ichiga oladi. Bunga qo'shimcha ravishda, ingliz bolalar adabiyoti namoyondalari hisoblangan bir qator olimlar haqida ham ma'lumotlar berilgan. Xususan, Charlz Dikkensning "Oliver Kromvel" va Lyus Kerrolning "Alisa mo'jizalar mamlakatida" hamda "Alisa ko'zgu ortida" kitoblarining ingliz bolalar adabiyotidagi o'mi xususida mulohazalar berilgan. Oliver Kromvel va Alisa kabi bolalar asarlarining badiiy obrazlari gneosologik jihatdan tahlil qilingan.*

**Аннотация**

Данная статья предоставляет подробную информацию о развитии и исследовании детской литературы в английском литературоведении. Подчеркивается, что детская литература, часто выражаемая через синонимы, имеет свои отдельные исследовательские объекты. Развитие английской детской литературы с конца XVIII века до начала XX века характеризуется испытанием новых литературных стилей и направлений, основанных на романтизме и классической традиции. В статье выделяются уникальные черты детской литературы, различия между детской и взрослой литературой через жанры, такие как фантастика и абсурдизм, а также роль тем детства в художественном процессе. Также отмечается значимость формирования детских персонажей и уникальность детской литературы в романтический период, особенно в викторианскую эпоху. Кроме того, статья охватывает специфические цели и художественные элементы детской литературы. Кроме того, приведены сведения о ряде ученых, которые считаются представителями английской детской литературы. В частности, обсуждается роль «Оливера Кромвеля» Чарльза Диккенса, «Алисы в стране чудес» и «Зазеркалья» Льюиса Кэрролла в английской детской литературе. Художественные образы детских произведений, таких как «Оливер Кромвель» и «Алиса», анализируются с эпистемологической точки зрения.

**Abstract**

*This article provides detailed information about the development and research of children's literature in English literary studies. It emphasizes that children's literature has distinct research objects, often expressed through synonymous terms. The development of English children's literature from the late 18th century to the early 20th century is characterized by testing new literary styles and directions rooted in Romanticism and classical tradition. The article highlights the unique features of children's literature, the differences between children's and adult literature through genres such as fantasy and absurdism, and the role of childhood themes in the artistic process. It also notes the significance of the formation of child characters and the uniqueness of children's literature during the Romantic period, particularly in the Victorian era. Additionally, the article encompasses the specific goals and artistic elements of children's literature. In addition, information is provided about a number of scholars who are considered representatives of English children's literature. In particular, the role of Charles Dickens's "Oliver Cromwell" and Lewis Carroll's "Alice in Wonderland" and "Through the Looking Glass" in English children's literature is discussed. The artistic images of children's works such as Oliver Cromwell and Alice are analyzed from a gnoseological perspective.*

**Kalit so'zlar:** bolalar adabiyoti, Angliya adabiyotshunosligi, romantizm, klassik davr, bolalar obrazlari, ta'limiylar, adabiyot, fantastika, viktoriyan davri.

## ADABIYOTSHUNOSLIK

**Ключевые слова:** детская литература, английское литературоведение, романтизм, классический период, детские персонажи, учебная литература, художественная литература, викторианская эпоха.

**Key words:** children's literature, English literature, romanticism, classical period, children's characters, school literature, godly literature, Victorian era.

### KIRISH

Angliya adabiyotshunoslik ilmida bolalar adabiyoti bir necha yuz yillardan buyon ilmiy jarayonlarning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lganligiga qaramasdan, uning tadqiqot obyektlari yetaricha tadqiq etilmagan. Ko'p holatlarda "bolalar kitoblari", "bolalar uchun badiiy asar", "bolalar adabiyoti" va "bolalar badiiy adabiyoti" tushunchalari sinonim sifatida ishlatalidi, lekin, aslida, yuqorida tushunchalar dunyo adabiyot nazariyotchiligidagi sinonim tushuncha hisoblanmaydi. Bolalar kitobxonligi yoki bolalar kitoblari, nazariyotchilar fikricha, badiiy adabiyot sohasining muhim qismlaridan biri hisoblanib, u ta'limiy-tarbiyaviy, ommabop, ko'ngilochar mavzu va yo'nalishlarda yozilishini mumkin. Asosan yoshi katta kitobxonlar yoki barcha yoshdagagi kitobxonlar uchun yaratilgan badiiy asar namunalari bolalar adabiyoti namunalaridan turlicha tahlilga tortildi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ingliz bolalar adabiyotining xronologik rivojlanishiga e'tibor qaratsak, bu davr XVIII asrning oxiri XX asrning birinchi choragini qamrab olishini guvohi bo'lamiz. XVIII-XIX asarlar ingliz adabiyotida klassik davr bo'lib, bu davr asosan romantizm uslubi vakillarining turli xil adabiy yo'nalish va turlarda olib borgan ijodiy tajriba hamda novatorlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shekspir davri an'analarini o'ziga asos qilib olgan bu davrdagi bolalar adabiyoti o'zining bir qancha xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bular: yangi adabiy uslublarni keng jamoatchilik ko'z o'ngida sinovdan o'tkazish, o'zidan avvalgi davrlarda foydalanilgan adabiy yo'nalishlarni adabiy maqsadga ko'ra moslashtirib olish, syujetlardagi dinamik o'zgarishlardan kitobxonlarni jalg qilishda foydalanish kabilardir. Bu davrda klassik bolalar adabiyoti vakillari Lir va L.Kerrol, shuningdek ilk bolalar fantastikasi vakillari Kingsley, J.Makdonald, K.Rozettilar XX asar boshida yuzaga kelgan bolalar adabiyotidagi novatorlik yo'nalishlariga o'ziga xos zamin tayyorladilar. Bu bolalar novatorlik asarları yangi psixologik bilimlarni o'zida mujassam etgan asarlar, yangi hajviy bolalar romanlar (S.Bekket), klassik she'riyat va dramaturgiya asosida abstraksionizm yo'nalishida bolalar uchun asarlar (T.S Eliot, S.Bekket), falsafiy fantastik asarlar (Borges, Kortasar), modernizm uslubida bolalar asarlarini (Myordok, Golding, Spark) o'z ichiga oladi [1,12].

Ingliz bolalar adabiyoti nazariyasi va uning boshqa mamlakatlar bilan o'zaro aloqasi qiyosiy-tarixiy aspekt asosida kam o'rganilgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu adabiy davr ilmiy jihatdan yetaricha tadqiq qilinmagan va filologik jihatdan bir qancha ilmiy o'rganishga muhtoj sohalarga ega. Shunday bo'lsada, ingliz bolalar adabiyoti nazariyasi borasida ingliz va rus tadqiqotchilarini misol keltira olamiz. Bularga F.X.Darton, N.M.Demurova, N.Y.Dyakonova, A.V.Dolinin, J.Dasinberr, J.Karpenter, A.Y.Kabakov, Y.S.Matveeva, M.Rose, D.M.Urnovlardir. Ular ushbu sohada ko'plab tadqiqotlarni olib bordilar va ushbu yo'nalishning metodologiyasini belgilab berdilar [1,14]. Rus adabiyotshunosligida N.M.Demurova Angliyada bolalar adabiyoti mavzusida ilmiy ishlar orib borib, ushbu mavzu bo'yicha umumlashtirilgan tanqidiy xulosalarni bayon qildi. Shuningdek, u birinchi marta ingliz bolalar adabiyoti namunalarini janr va mavzu xususiyatlarga ko'ra tasniflashni amaliyotga kiritdi.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Yuqorida mualliflar asarlaridan ko'rindiki, bolalar va kattalar "fantastikasi" bir-biridan farq qilsada, ular paydo bo'lish va rivojlanish bosqichida umumiyligi jihatlarga ega bo'lganlar, shuningdek bolalar va kattalar fantastikasini bir-biridan ustun qo'yish adabiy bilimlarni noto'g'ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin. Bolalar adabiyoti fantastikasiga xos bo'lgan absurdizm, hayvonot olami vakillaridan foydalanish, "yuqori fentezi" janri ramzlaridan foydalanish bir qarashda bolalar adabiyotini atayin soddalashtirishdek ko'rinsada, yuqorida ta'kidlangan uslub va yo'nalishlar asosida yozuvchining badiiy maqsadi amalga oshiriladi va kitobxon bilan aloqaga kirishda birlamchi vositalardan biriga aylanadi. XIX-asr oxiri XX-asr boshlaridagi badiiy jarayonning eng muhim yangiliklaridan biri bu ingliz adabiyotida o'ziga xos bo'lgan bolalik mavzusi, bolalar obrazini yaratilgani ingliz bolalar adabiyotining eng katta yutuqlaridan biriga aylanadi. Bu davr adabiyoti xronologiyasida badiiy adabiyotdagi bolalik mavzusi va bolalar obrazini yaqqol ajralib turadi. Dastlab,

kattalar adabiyotiga tegishli bo'lgan bo'lsada, shu davr romantizm yozuvchilari asarlarda alohida mavzu va obraz sifatida shakllandi, bundan avvalgi ma'rifatparlik va puritanizm adabiyoti davrida bolalik mavzusi va bolalar obrazi adabiy jarayonlardan chetda qolganini badiiy asarlardan barchaga ma'lum. Bu romantizm davrini ba'zi manbalarda Viktoriyan davri deb ham talqin qilinadi. Bu davrda individual badiiy elementlar, hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirishdagi o'ziga xos uslublar, yozuvchi fantaziyasining badiiy maqsad yo'lida bola obrazini rassom yoki boshqa san'at vakili kabi so'z yordamida "chizish" muhimligi bolalar adabiyotining birlamchi vazifasiga aylandi.

Biz yuqoridagi fikr bilan ma'rifatchilik adabiyoti davrida bolalik mavzusi yoki bolalar obraziga umuman murojaat qilinmagan degan fikrdan yiroqmiz. Albatta, puritanizm va ma'rifatchilik adabiyoti davrida ham bolalar uchun asarlar yaratilgan, lekin, ularning eng asosiy maqsadi ta'limiy-tarbiyaviylikka e'tibor qaratilganligi sababli badiiylikdan ko'ra didaktik unsurlar ko'proq yuzaga chiqib, pedagogikaning qismiga aylanib qolgan. Bularga misol qilib o'sha davrda yaratilgan, masalan, U.Bleykning "Begunohlik qo'shiqlari" (1789), "Tajriba qo'shiqlari" (1794) she'riy to'plamlari, shuningdek, U.Vordsvortning 1798-1804-yillarda yaratilgan "Bir o'g'ilning hayoti", "Tabiat hodisalarining siri", "Abadiyat ishoralar", "Abadiyat xususiyatlari" "Uch yoshli bola", "Sayr" kabi bolalar haqidagi balladalarni keltiramiz. Vordsvortning balladalarida bolalar asarlari uchun xos bo'lgan yo'l, sarguzasht motivlarining ilk namunalarini ko'ramiz, uning asarlarda qahramonlar yo'l yurish, sargardonlik orqali o'z harakterlarini rivojlantiradilar. Romantisizm adabiyoti vakillari tomonidan 1820-1830-yillarda yaratilgan bir qator badiiy asarlarda ( Charlz Lam va T.D.Kvinsining "Jodugarlik va qo'rqinchli tushlar", "Teatrda birinchi marta", "Orzu", "Barbara" asarlari) ilk bora bolalar obrazlarining psixologik portretlari yaratilganini guvohi bo'lamiz.

Aytib o'tganimizdek, XIX asr o'talariga kelibgina badiiy maqsadi, nafaqat ta'lim berish bo'lgan, shuningdek, estetik zavq beruvchi, badiiy sayqallangan chinakam "san'at" namunalari yaratildi. XIX asr ingliz adabiyotining zabardast vakillarida biri Charlz Dikkenz bolalar adabiyoti, bolalar obrazini yaratish bo'yicha muvaffaqiyatli asarlar yozdi. Uning 1837-1839-yillarda yozilgan "Oliver Twist" romani va "Nikolas Niklbi" qissasi ingliz adabiyotida bola obrazini eng yuqori obrazga qo'yan ilk badiiy asar namunalaridir. Ch.Dikkenzdan keyin bir qator mualliflar bolalar uchun muvaffaqiyatli asarlar yaratdilar, masalan, S.Sinklerning "Dam olish uyi", "Dikkinnzing antiqa buyumlar do'kon", Kingsleyning "Suv chaqaloqlari" asarlari [2,5]. Shuningdek, XIX asrning ikkinchi yarmida ingliz bolalar klassikasining eng yorqin namunalaridan hisoblangan "Alisa mo'jizalar mamlakatida" (1856) va uning mantiqiy davomi hisoblangan "Alisa ko'zgu ortida" asarlari ingliz matematik olimi, faylasuf, shoir hamda yozuvchi Charlz Lyudvig Dodjson (Lyus Kerrol) tomonidan yozildi.

XIX-XX-asarlardagi ingliz bolalar klassikasi faqatgina romantizm adabiyotining "katta yutug" deb ta'kidlash ham bir tarafdan u davrdan avval sodir bo'lgan adabiy jarayonlar, ma'rifatchilik va puritanizm adabiyoti uchun noto'g'ni fikr bo'ladi. Ingliz bolalar klassikasi bu davrda "katta portlash" ni amalga oshirmadi, balki yillar davomida olib borilgan ingliz adabiyotidagi o'ziga xos jarayonning natijasi o'laroq, uzviy bog'langan holatda yuzaga chiqdi. Bu davrda so'z san'atkorlari qahramon va harakterlarni portretini yaratishda poetik semantikaning cheksiz imkoniyatlaridan foydalandilar, voqeа-hodisalarini so'z bilan ifodalanish jarayonini yangi bosqichga olib chiqdilar.

Yuqoridagi fikrlarda ta'kidlanganidek XIX-asrning 30-yillaridan boshlab romantizmning tarixiylik va inson shaxsiga murojaat qilish xususiyatlari bolalar uchun yaratilgan asarlarni chinakam ma'noda adabiy asar bo'lib yaratilishiga zamin yaratdi. Demak, bir tomonidan, bolalar adabiy asarlarda bolalikni tarixiy metafora sifatida ko'rish, ikkinchi tomonidan, bolalikni tasvirlashda shaxsiy va biografik psixologizmdan foydalanish "kattalar" adabiyoti singari bolalar adabiyoti janrlarining ham muhim xususiyatiga aylandi. Bu omillar yordamida ijodkor bola obrazini belgilovchi lirik metaforani yaratdi va bu holat bola obrazini adabiyotning, nafaqat obyektiga, shuningdek, san'atning subyektikaga ham aylantirdi. Bu holat 20-asrning 30-yillarida kuzatilgan "kattalar" adabiyoti badiiy asosidagi o'zgarishlarga ham ta'sirini o'tkazdi va adabiy jarayonlar va turlar o'tasidagi uzviy bog'lanishni ko'rsatib berdi.

1840-1860-yillarda bolalar adabiyotida sarguzasht-fantastik asarlari juda ko'plab yaratildi. Bu asarlar o'z xususiyatlarini XIX asr boshida yaratilgan pand-nasihat yo'nalishidagi asarlardan

## ADABIYOTSHUNOSLIK

meros qilib olgan bo'lsada, ularning badiiy xususiyatlarda o'sha davr uchun birlamchi tushunchaga aylangan realizm unsurlari yaqqlolroq namoyon bo'ladi. Realizm xususiyatlarini o'zida jamlagan bola obrazi o'sha davr va makonda ro'y bergan jamiyat qiyinchililarini boshidan o'tkazadi, o'sha davr odamlari bilan konfliktga boradi, xarakter sifatida shakllanish jarayonida turli xil muammolarni bartaraf etadi. Charlz Dikkens tomonidan yaratilgan "Oliver Kromvel" asari yuqorida ta'kidlangan realistik davrdagi bola obrazining tipik vakilidir. Asarda katta shaharda yolg'iz yashayotgan bolaning zamon qiyinchiliklarini yengishi tasvirlangan. Bu kabi asarlarda voqelikning badiiy konseptsiyasi, badiiy psixologizmning xususiyatlarini ochib berishda muallifning "ovozi" muhim bo'lgan. O'z jamiyatidagi kamchiliklarni ko'rsatib, odamlarning e'tiborini shu muammolarni bartaraf etishga qaratish uchun mualliflar satirk, kinoyaviy usullardan foydalandilar. Muammolar to'g'ridan to'g'ri aytilmay, balki ramzlar va allegoriyalar yordamida ko'rsatib berildi.

Shunday qilib, inglez "bolalar" janrlari poetikasi taraqqiyoti va ularning adabiy jarayondagu hayotini tahlil qilish, "bolalar" poetikasining shakllanishini ko'rishga imkon yaratdi. XIX asrdagi inglez klassik bolalar adabiyotida "bolalik" estetik kategoriya sifatida paydo bo'ldi va rivoj topdi. Unga ko'rga bola idroki o'zining ochiq fikrliliqi, soddaligi va dunyoni "bilish"ga bolgan ulkan qiziqishi estetik qadriyat sifatida tushunildi. Estetik qadriyatlar san'atkorning "men"i va umumiy bilimlar o'rtasidagi dialektik munosabat natijasi mahsulidir va ular yordamida yaratilgan bolalar obrazlari o'ziga xosligi sifatida ularning falsafiyligi, umumlashtirilgan ramzlardan foydalanilganligi, shuningdek o'zida jamiyat fojeasini ham ko'rsatganligi bilan xarakterlanadi. Bolalar badiiy asarlarda ko'rib chiqilgan barcha tarixiy-madaniy davrlar orqali "bolalar" janrlaridagi fantaziya va dramaning falsafa bilan bog'liqligi, shuningdek, Uilyam Shekspir va Kristofer Marlov impulslariga asoslangan bolalar klassikasidagi falsafiy-badiiy munosabatlar ham ko'rsatilgan. Shuningdek, 1850-yillarda Lyus Kerrol ijtimoiy-psixologik utopiya va fantastik elementlarni birlashtirgan holatda o'zining "Magnum opus"i hisoblangan "Alisa mo'jizalar mamlakatida" va "Alisa ko'zgu ortida" asarlarda gnoseologik metaforalardan ham foydalandi.

Dastlabki inglez bolalar adabiyoti namunalari yaratilganidan so'ng, ularni nazariy asoslarni rivojlantirishga ham talab paydo bo'ldi. Ushbu yo'nalishda ish olib borgan Ch.Lam va V.Godvinlarning o'zaro yozishmalari va mavzu doirasidagi maqolalari inglez adabiyotshunosligida bolalar adabiyoti nazariyasining boshlanishiga turtki bo'ldi. Shuningdek, badiiy san'atda bola obrazining nazariy asoslari haqida amerikalik mashhur yozuvchi N.Hovtorn ham o'zining insho va maqolalarida yoritib bergen. Unga ko'ra, badiiy adabiyotdag'i bola obrazi o'ziga xos harakteri va paydo bo'lish asoslariga ko'ra kattalar obrazlaridan farq qiladi. Hissiy o'zgarishlarga ta'sirchanlik, atrof-muhitga, tabiatga bo'lgan o'ziga xos qarash, bolalarcha fikrlar xilma-xilligi sababli, ularni kattalar obrazlarini yaratish jarayoni bilan solishtirish mumkin emas.

Romantisizm adabiyotining 1830-1840-yillarda bolalar adabiyotining eng qadimiy namunasi hisoblangan ertaklarni nazariy o'rganish ishlari ham olib borildi. Sauthey, Sinkler, Paget, Reskin kabi adabiyotshunoslar adabiy va maishiy ertaklar asosini tashkil qilgan fantaziya hamda hayoliy obrazlar, insoniyatning umumiy kamolotida ham muhim rol o'yaydi degan fikri ilgari surdilar. "Absurdsiz va fantaziyasiz utilitar ta'lim odamzodning kreativ o'ylash qobiliyatini yo'qotadi" kabi munozaralar Sinkler va Pagetning yozishmalarida uchraydi.

XX asrning 30-yillarda inglez bolalar adabiyoti nazariyasi sohasida mashhur amaliyotchilardan biri F.X.Darton o'zining balalar adabiyotidagi badiiylik muammolari, shakl va mazmun uyg'unligi, bolalar uchun yaratilgan asarlardagi mavzuning dolzarbligi haqida chuqur izlanishlar olib bordi. Uning nazariyasiga ko'ra bolalar badiiy adabiyotida didaktikaning o'mi yuqori bo'lmasligi kerak, aksincha, bolalar adabiy asarlari fantaziya va o'yin kulguni o'zida muhim xususiyat sifatida aks ettirishi lozim deya ta'kidlaydi [3,21]. Bizning nazarimizda, bu o'rinda adabiyotning asosiy belgilardan biri bo'lgan aqliy ta'sir qilish so'roq ostida qoladi. Haqiqiy klassik bolalar adabiyoti namunalari o'zida ham didaktik, ham o'yin-kulgu unsurlarini ko'rsata olishi kerak va bu holat so'z san'ati ustasining mahorati bilan bog'lanadi. Bu jarayonning cho'qqisi, shubhasiz, L.Kerrol, U.Tekerey, Ch.Dikkenzlarning asarlari yaratilgan davr bilan bog'lanadi va bu davr inglez bolalar adabiyotining "oltin davri" deb ham nomilanadi. Ular yaratgan fantastik hikoya va qissalar, realistik romanlar badiiy sifati, yangilik darajasi, tasvir, fikr va suyjetlarning o'zaro mutanosibligi bilan ajralib turadi. Bu davr bolalar adabiyoti namunalari XX asr adabiyotidagi "ong oqimi" yo'nalishi, absurd dramaturgiyasi, T.S.Eliot va F.Kafka uslublari yaratilishida muhim rol o'ynadi.

Lyus Kerrolning yuqorida ta'kidlangan "Alisa mo'jizalar mamlakatida" kitobi shu davr bolalar adabiyotining barcha xususiyatlarini o'zida mujassam etadi. Tadqiqotshunos E.M.Fild "Alisa mo'jizalar mamlakatida" ingliz bolalar adabiyotining o'z davri uchun milliy klassikasi hisoblanadi. Asarning adabiy-tanqidiy o'rganilishi bolalar asarlarining ilmiy o'rganilishiga asos bo'ldi" deb yozadi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ingliz bolalar adabiyoti rivojiga nazar tashlanadigan bo'lsa, u o'zida o'ziga xos bo'lgan xronologik davrlarni birlashtirganini guvohi bo'lamiz. Dastlab, ingliz ma'rifatchilik va puritanizm adabiyoti badiiy namunalari tarkibida didaktik nuqtayi nazardan paydo bo'lgan bolalar adabiyoti XIX asarning ikkinchi yarmidan boshlab "kattalar" adabiyotidan ajralib chiqishga muvaffaq bo'ldi. Viktoriya davrining ko'zga ko'ringan vakillari hisoblangan Ch.Dikkenz, L.Kerrol, J.Stivensonlar ingliz adabiyotiga yangi yo'nalish hisoblangan bolalar adabiyoti namunalarini keng ommaga taqdim qildi. O'zida novatorlik xususiyatlarini jamlagan asarlar: "Alisa mo'jizalar mamlakatida", "Oliver Kromvel" kabi asarlar shu davrning badiiy yutuqlarini o'zida jamlagan. Bu davrda yaratilgan bolalar adabiyoti namunalari o'zidan keyin yaratilgan juda ko'plab asarlar uchun ilhom manbai vazifasini o'tadi. Xususan, "Alisa mo'jizalar mamlakati" asari o'zidan keyin yaratilgan fantastik-sarguzasht asarlar uchun haqiqiy adabiy qo'llanma vazifasini bajardi. Unda foydalilanigan bolalar fantastik-sarguzasht asarlar elementlari XX asar davomida juda ko'plab bolalar yozuvchilari tomonidan turlicha usulda takroran foydalandi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Скуратовская Людмила Ивановна. Основные жанры детской литературы в историко-литературном процессе Англии XIX-начала XX века – Москва, Литература народов, 1991
2. Philip Collins. Charles Dickens British Novelist – Britannica, 2013.
3. J. Harvey Darton. Story of Alice in Wonderland - The Western Gazette, 1936.
4. Ortigov, R. (2024). THE DEVELOPMENT OF BRITISH CHILDREN'S LITERATURE. *Development of pedagogical technologies in modern sciences*, 3(9), 65-70.
5. Ortigov, R. (2024). INGLIZ FANTASTIK ASARLARINING ILK NAMUNALARIDAN ZAMONAVIY DURDONALARIGACHA BO'LGAN RIVOJLANISH BOSQICHI. *Инновационные исследования в науке*, 3(5), 94-98.
6. Ortigov, R., & Shokirov, S. (2024, June). TRACING THE DEVELOPMENT FROM CLASSICAL ROOTS TO CONTEMPORARY MASTERPIECES OF ENGLISH FANTASY. In *Fergana State University conference*.